# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№1

2026 yanvar




Milliy nashrlar

**OAK:** https://oak.uz/pages/4802

*05.00.00 - Texnika fanlari*
*08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar*



ISSN: 3060-463X

*Elektron nashr, 311 sahifa.*
*2026-yil, yanvar*

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Bosh muharrir:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Shakarov Zafar G'afforovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay'ati:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Botirali Roxataliyevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li,** Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)
**Jo'raeva Malohat Muhammadovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
**Kalonova Moxigul Baxritdinovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Norboyev Odil Abrayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal


05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta’minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta’minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug‘lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To‘qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo‘l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta’minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma’lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo‘yicha “Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali ro‘yxatga kiritilgan.


Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

# MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА....26
**Каракулов Фарход Зайпудинович**

TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI....33
**Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna**

QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH....38
**Achilov Ilmurad Nematovich**

TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI....45
**Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o‘g‘li**

КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ....51
**Алиева Сусанна Сейрановна**

ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ....58
**Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич**

BARQAROR INVESTITSIYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI....65
**Ruzibayeva Nargiza Xakimovna**

KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA....71
**Ashurova Oltin Yuldashevna**

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI....78
**Xusanova Gulsum Baxtiyorovna**

QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI....84
**Bekmurod Davlatmuratovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova**

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI....89
**Atajanov Kamal Atavayevich**

AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI....96
**Pirmatov Nurali Berdiyarovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o‘g‘li**

O‘ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL....101
**Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich**

TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEXANIZMLAR....108
**Tojiyev Sardor Dilmurod o‘g‘li**

TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI....113
**Shayxiyev Boburbek Ulug‘bekovich**

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA’LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI....120
**Abdullayev Javohir Abdumalik o‘g‘li**

GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI ....................................................125
Ziynura sabirova

RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O‘RNI ....................................................129
Otajonov Tohirjon Xo‘janazar o‘g‘li

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ ....................................................133
Кадирова Шарофат Амоновна

KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH ....................................................139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich

O‘ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI ....................................................143
Saidov Dilshodbek Razzakovich

QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI ....................................................148
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА ......153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович

MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA’SIRI ....................................................161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich

INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI ...........165
Aliyev Hasan Rayimjonovich

ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN ..........................171
Sharipov Kamil

SUN’IY INTELLEKT – TO‘RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI ....................................................176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich

KORXONALARDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING TASHKILIY VA IQTISODIY MASALALARI ..........187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich

YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO‘LLARI ....................................................193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich

TALABALARDA O‘Z-O‘ZINI TARTIBGA SOLISH KO‘NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA’LIM PLATFORMALARINING O‘RNI ....................................................198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi

XIZMAT KO‘RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI ....................................................203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich

XORAZM VILOYATIDA KAMBAG‘ALLIK DARAJASINING O‘ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI ....................................................208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna

IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH ....................................................213
Turdiyev Ulug‘bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug‘bek qizi

EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI ....................................................217
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o‘g‘li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS ....................222
Yovkochev Sherzod

ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI ....................228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li

MOSH DONINI YANCHIB OLISHDA QO'LLANILADIGAN QURILMANI LOYIHALASH ....................232
Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich

DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR ....................239
Sarvar Saidov Xayrulloyevich

O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR ....................244
Tashov Mizrob Maxmudovich

DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI ....................251
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich

ФИНАНСЫ И ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА ....................257
Айматова Фарида Хуразовна

ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI ....................263
Salayeva Dilafro'z Aybekovna

ДИАГНОСТИКА СИНХРОННОГО ДВИГАТЕЛЯ НА ОСНОВЕ ИЗМЕРЕНИЯ ВНЕШНЕГО МАГНИТНОГО ПОЛЯ ....................267
Пирматов Нурали Бердярович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Мамуров Алмас Жумабой угли

XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI ....................275
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna

СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СТОИМОСТИ КОМПАНИИ В СДЕЛКАХ СЛИЯНИЙ И ПОГЛОЩЕНИЙ ....................279
Ли Илларион Георгиевич

KO'P YADROLI CPU VA GPU ARXITEKTURALARIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI SONLI YECHISH UCHUN PARALLEL ALGORITMLARNI ISHLAB CHIQISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH ....................284
Ismailov Shixnazar Rashid o'g'li, Ubaydullayev Farrux Fathulla o'g'li, Odilov Asliddin Isoq o'g'li

СИСТЕМАТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ — ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ ....................291
Муталов Абдуазим

O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNING HUDUDIY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI ....................295
Ermamatov Shonazar Jumakulovich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA SIYOSATI: INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI ISLOHOTLAR ....................302
Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA SIYOSATI: INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI ISLOHOTLAR

**Sobirov Yo‘ldoshboy Ro‘zimboevich**
PhD, Assistant Professor,
Buxgalteriya hisobi kafedrasi,
Mamun universiteti, Urganch shahri, O‘zbekiston.
E-mail: sobirov_yuldoshboy@mamunedu.uz
ORCID: 0000-0002-2945-9451

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosatining hozirgi holati hamda institutsional va raqamli islohotlar orqali investitsiya muhitini yaxshilashning ustuvor yo‘nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida mamlakatning investitsion salohiyati, xususan investitsiyalar hajmi, ularning tarkibi, manbalari va iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha yo‘naltirilishi o‘rganiladi. Shuningdek, 2025-yil 18-iyuldagi PQ–226-sonli Prezident qarori asosida Xorijiy investorlar kengashi faoliyatini mustahkamlash, uning kotibiyatini nodavlat notijorat tashkilot shakliga o‘tkazish hamda investitsiya jarayonlarini raqamlashtirishga qaratilgan institutsional islohotlar tahlil etiladi.
Maqolada tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, “Biznesni 15 daqiqada boshlash” tamoyili va Investitsiya kodeksi orqali normativ-huquqiy bazani soddalashtirish, shuningdek sud tizimi orqali investorlarning moliyaviy manfaatlarini himoya qilish mexanizmlari batafsil ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt va “yashil” energetika kabi innovatsion yo‘nalishlarga investitsiyalarni jalb etish orqali iqtisodiy diversifikatsiya va barqaror rivojlanishga erishish imkoniyatlari yoritiladi.
Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan institutsional va raqamli islohotlar investitsiya muhitining jozibadorligi va shaffofligini oshirishga, tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirishga hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Maqolada investitsiya siyosatini yanada samarali amalga oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar berilgan bo‘lib, ular Investitsiya kodeksini takomillashtirish, raqamli platformalarni rivojlantirish, sud tizimini soddalashtirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va innovatsion sohalarga investitsiyalarni jalb etishni nazarda tutadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, investitsiya siyosati, institutsional islohotlar, raqamli transformatsiya, tadbirkorlik, Investitsiya kodeksi, xorijiy investitsiyalar, innovatsion investitsiyalar.

Abstract. This article provides a scholarly analysis of the current investment policy of the Republic of Uzbekistan, with a particular focus on institutional and digital reforms aimed at improving the investment climate. The study examines the country’s investment potential, including investment volumes, structural composition, financing sources, and sectoral allocation. Special attention is given to the implementation of Presidential Decree PD–226 of July 18, 2025, which strengthens the activities of the Council of Foreign Investors, transforms its secretariat into a non-profit organization, and advances the digitalization of investment processes.
The article also explores measures to support entrepreneurship, including the “Business in 15 Minutes” principle and the adoption of the Investment Code, which streamlines the regulatory framework and enhances investor protection mechanisms. Furthermore, opportunities for attracting investments in the digital economy, artificial intelligence, and green energy are analyzed as key drivers of economic diversification and sustainable development.
The findings indicate that Uzbekistan’s ongoing institutional and digital reforms contribute to the creation of a transparent, attractive, and investment-friendly environment, fostering entrepreneurship and strengthening economic stability. The article proposes policy recommendations aimed at further improving investment governance, including the development of digital platforms, judicial reforms, expansion of international cooperation, and promotion of investments in innovative sectors.

Keywords: Uzbekistan, investment policy, institutional reforms, digital transformation, entrepreneurship, Investment Code, foreign investment, innovative investment.

Аннотация. В статье проводится научный анализ современной инвестиционной политики Республики Узбекистан с акцентом на институциональные и цифровые реформы, направленные на формирование благоприятного инвестиционного климата. В рамках исследования рассматривается инвестиционный потенциал страны, включая объемы инвестиций, их структуру, источники финансирования и распределение по секторам экономики. Особое внимание уделяется реализации постановления Президента Республики Узбекистан PQ–226 от 18 июля 2025 года, предусматривающего укрепление деятельности Совета иностранных инвесторов, трансформацию его секретариата в форму некоммерческой организации и цифровизацию инвестиционных процессов.

В статье также анализируются меры по поддержке предпринимательства, включая принцип «Бизнес за 15 минут» и принятие Инвестиционного кодекса, направленного на упрощение нормативно-правовой базы и усиление защиты прав инвесторов. Отдельное внимание уделено возможностям привлечения инвестиций в цифровую экономику, искусственный интеллект и «зеленую» энергетику как факторам экономической диверсификации и устойчивого развития.

Результаты исследования свидетельствуют о том, что институциональные и цифровые реформы, реализуемые в Узбекистане, способствуют формированию прозрачного, привлекательного и стимулирующего инвестиционного климата, укреплению предпринимательства и обеспечению экономической стабильности. В статье предложены рекомендации по дальнейшему совершенствованию инвестиционной политики, включая развитие цифровых платформ, реформирование судебной системы, расширение международного сотрудничества и стимулирование инновационных инвестиций.

Ключевые слова: Узбекистан, инвестиционная политика, институциональные реформы, цифровая трансформация, предпринимательство, Инвестиционный кодекс, иностранные инвестиции, инновационные инвестиции.

## KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, investitsiya muhitini takomillashtirish hamda tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil va kompleks siyosatni amalga oshirmoqda. Mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YaIM) so‘nggi sakkiz yil davomida barqaror sur’atlarda o‘sib, 2030-yilga kelib uni 200 milliard AQSh dollariga yetkazish strategik maqsad sifatida belgilangan[1]. Shu bilan birga, 2024-yilda investitsiyalar hajmining 35 milliard AQSh dollariga, eksport ko‘rsatkichlarining esa 27 milliard AQSh dollariga yetgani, Toshkent xalqaro investitsiya forumining amaliy natijalari sifatida, O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanish yo‘lidan izchil borayotganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston iqtisodiy o‘sishining muhim jihati shundaki, mazkur jarayon nafaqat miqdoriy, balki sifat ko‘rsatkichlari bilan ham tavsiflanadi. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilning yanvar–sentabr oylarida asosiy kapitalga 443,6 trillion so‘m miqdorida investitsiyalar jalb etilgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 15,2 foizga oshgan. Investitsiyalarning tarkibi va moliyalashtirish manbalari tahlili xususiy hamda xorijiy kapitalning faol ishtirokini, davlat mablag‘larining esa strategik va muvozanatli tarzda yo‘naltirilayotganini tasdiqlaydi. Bu holat iqtisodiyotning bozor mexanizmlariga moslashuvchanligini hamda investitsion salohiyatning barqaror rivojlanishini ifodalaydi[2].

O‘zbekiston Respublikasining investitsiya siyosati an’anaviy sarmoyalar bilan cheklanib qolmasdan, zamonaviy moliyaviy instrumentlarni ham qamrab olmoqda[3]. Xususan, venchur kapital, obligatsiyalar, kraudfanding va startap loyihalari orqali innovatsion hamda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan investitsiyalarni jalb etish amaliyoti izchil kengayib bormoqda. Ushbu yondashuv iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va texnologik transformatsiyani jadallashtirishga xizmat qiladi.

Investitsiya siyosatini yanada samarali amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasida institutsional va raqamli islohotlar tizimli ravishda olib borilmoqda[4]. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-iyuldagi “Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–226-sonli[5] qarori Xorijiy investorlar kengashi faoliyatini institutsional asosda mustahkamlash, investitsiya jarayonlarini raqamlashtirish va tadbirkorlik faoliyatini soddalashtirishga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi[6]. Mazkur

1 https://kun.uz/news/2024/10/18/ozbekiston-2030-yilga-borib-yaimni-200-mlrd-dollarga-yetkazishi-mumkinligi-aytildi#:~:text=Prezident%20yalpi%20ichki%20mahsulot%20hajmini%202030%20yil,iqtisodiyot%20va%20moliya%20vaziri%20o‘rinbosari%20Ilhom%20Norqulov.

2 https://www.uzbekjournal.uz/ru/post-detail/445/?category_id=7

3 https://invest.gov.uz/uz/

4 https://lex.uz/Pages/GetPdf.aspx?file=LexUz_7742432.pdf#:~:text=yagona%20davlat%20investitsiya%20siyosatini%20amalga%20oshirish%20hamda,kelishgan%20holda%20O‘zbekiston%20Respublikasi%20davlat%20boshqaruvi%20organlarining

5 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-iyuldagi “Xalqaro shartnomani tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–226-sonli qarori: https://lex.uz/ru/docs/-6532545

6 https://lex.uz/uz/docs/-7637571

qaror doirasida Kengash kotibiyatining nodavlat notijorat tashkilot shakliga oʻtkazilishi, “Yagona investitsiya platformasi” axborot tizimining joriy etilishi hamda “Biznesni 15 daqiqada boshlash” tamoyilining amalga oshirilishi tadbirkorlar va investorlar uchun qulay hamda shaffof muhit yaratishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, Investitsiya kodeksining ishlab chiqilishi kutilmoqda. Ushbu kodeks investitsiya sohasidagi normativ-huquqiy qoidalar, kafolatlar va tartib-taomillarni yagona tizimga birlashtirib, investorlar uchun barqaror va ishonchli huquqiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Sud tizimidagi takomillashtirishlar, jumladan moddiy zararlarni undirish jarayonini tezlashtirishga qaratilgan “astrent” mexanizmi, tadbirkorlar va investorlar manfaatlarini samarali himoya qilish imkonini yaratadi[7].

Mazkur maqola doirasida Oʻzbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati, institutsional va raqamli islohotlar, tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash mexanizmlari ilmiy-tahliliy jihatdan oʻrganiladi. Shuningdek, Investitsiya kodeksi, raqamli xizmatlar, sud tizimidagi yangilanishlar hamda xususiy va xorijiy investorlar bilan hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarning mamlakat iqtisodiyotiga taʼsiri baholanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiya siyosatining nazariy asoslari iqtisodiy oʻsishda institutlarning hal qiluvchi rolini ochib beradi. Daron Acemoglu, Simon Johnson va James Robinson tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyaga koʻra, samarali institutlar mulk huquqlarini himoya qilish, shaffoflik va barqarorlikni taʼminlash orqali investitsiyalar oqimini ragʻbatlantiradi. Douglas Northning institutsional iqtisodiyotga oid ishlari esa institutlar evolyutsiyasi va ularning iqtisodiy samaradorlikka taʼsirini chuqur tahlil qiladi. Ushbu yondashuvlar Robert Barro hamda Robert Lucas tomonidan ilgari surilgan iqtisodiy oʻsish modellari bilan uygʻunlashib, investitsiyalarni uzoq muddatli rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida talqin etadi.

Oʻzbekiston sharoitida investitsiya siyosatining institutsional jihatlari mahalliy olimlar tadqiqotlarida keng yoritilgan. Abdullayev tomonidan investitsiyalar iqtisodiyoti masalalari bozor mexanizmlari va davlat tartibga solish vositalari uygʻunligida tahlil qilingan. Qodirov mintaqaviy rivojlanishda investitsiyalarning rolini ochib berib, hududlar kesimida investitsiya muhitini yaxshilash zarurligini asoslaydi. Yuldashev inson kapitalining investitsiyalar samaradorligiga taʼsirini ilmiy jihatdan isbotlab, institutsional islohotlarning ijtimoiy omillar bilan uzviy bogʻliqligini koʻrsatadi.

Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda investitsiya siyosati raqamli transformatsiya bilan chambarchas bogʻliq holda rivojlanmoqda. Xalqaro valyuta jamgʻarmasi va Jahon banki hisobotlarida raqamli boshqaruv, elektron davlat xizmatlari hamda moliyaviy shaffoflik xorijiy investitsiyalarni jalb etishda muhim omil sifatida qayd etiladi. Milliy statistika qoʻmitasi, Markaziy bank hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi maʼlumotlari investitsiya hajmlarining barqaror oʻsishini tasdiqlaydi. Prezident nutqlari va hukumat qarorlarida esa institutsional islohotlar va raqamli yechimlar investitsiya muhitini tubdan yaxshilashga qaratilgan ustuvor yoʻnalish sifatida belgilangan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Oʻzbekiston Respublikasida investitsiya siyosatining institutsional va raqamli islohotlar bilan bogʻliq jihatlarini baholash uchun ikkilamchi maʼlumotlardan foydalanildi. Tadqiqot maʼlumotlari Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank hamda Jahon banki va Xalqaro valyuta jamgʻarmasining ochiq statistik bazalaridan olindi. Shuningdek, investitsiya muhitini tavsiflovchi koʻrsatkichlar, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, xorijiy investitsiyalar oqimi hamda raqamli rivojlanish indikatorlari qamrab olindi. Olingan maʼlumotlar dinamik va taqqoslama tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, institutsional oʻzgarishlar va raqamli islohotlarning investitsiya jarayonlariga taʼsiri baholandi. Tahlil jarayonida korrelyatsion va iqtisodiy-statistik yondashuvlardan foydalanilib, kuzatilgan tendensiyalar asosida umumiy ilmiy xulosalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Oʻzbekiston Respublikasining investitsion salohiyati. Oʻzbekiston Respublikasining investitsion salohiyati mamlakat iqtisodiyotida mavjud resurslar, institutsional imkoniyatlar va bozor mexanizmlari uygʻunligi asosida investitsiyalarni jalb qilish hamda ularni samarali oʻzlashtirish qobiliyatini ifodalaydi. Soʻnggi yillarda amalga oshirilayotgan izchil iqtisodiy islohotlar natijasida Oʻzbekistonning investitsion salohiyati nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy koʻrsatkichlar orqali ham oʻzining barqarorligini namoyon etmoqda.

Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlariga koʻra, 2025-yilning yanvar–sentabr oylarida Oʻzbekistonda asosiy kapitalga 443,6 trillion soʻm miqdorida investitsiyalar oʻzlashtirilgan boʻlib, mazkur koʻrsatkich 2024-yilning mos

7 https://kun.uz/75587928

davriga nisbatan 15,2 foizga oshgan[8]. Ushbu ko‘rsatkichlar mamlakat investitsion salohiyatining mustahkamligini hamda iqtisodiy rivojlanishning mo‘tadil va barqaror o‘sish trayektoriyasiga bosqichma-bosqich o‘tilayotganini tasdiqlaydi[9].

Shuni ta’kidlash joizki, 2024-yilda investitsiyalar hajmining qariyb 39 foizga oshgani iqtisodiyotda yuqori investitsion faollik mavjud bo‘lganini ko‘rsatsa, 2025-yildagi o‘sish sur’atlarining nisbatan muvozanatli tus olishi investitsiya jarayonlarining sifat jihatidan barqarorlashayotganidan dalolat beradi. Mazkur holat investitsiyalarni rejalashtirish va yo‘naltirishda ehtiyotkorlik va uzoq muddatli strategik yondashuv kuchayib borayotganini ifodalaydi hamda mamlakat investitsion salohiyatining yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi (1-rasm).




1-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi[10]

Investitsion salohiyatning muhim jihati shundan iboratki, u investitsiyalar hajmi bilan bir qatorda ularning tarkibiy tuzilishi va moliyalashtirish manbalarini ham qamrab oladi. 2025-yilning to‘qqiz oyi yakunlariga ko‘ra, investitsiyalar o‘sishi asosan xususiy va xorijiy kapital hisobiga ta’minlangan. Xususan, markazlashtirilmagan manbalar — korporativ mablag‘lar, bank kreditlari va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 15,6 foizga oshib, 400,2 trillion so‘mni tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkichlar investitsiya jarayonlarida bozor mexanizmlarining roli kuchayib borayotganini hamda xususiy sektor faolligining ortayotganini yaqqol namoyon etadi.

Ayni paytda, markazlashtirilgan manbalar, ya’ni davlat budjeti va davlat dasturlari hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar hajmi 43,4 trillion so‘mga yetib, 11,9 foizga oshgan. Shunga qaramay, ularning umumiy investitsiyalar tarkibidagi ulushi 10,1 foizdan 9,7 foizgacha kamaygan. Mazkur holat O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ehtiyotkor va muvozanatli budjet siyosatini aks ettirib, investitsion salohiyatni asosan xususiy sektor hamda tashqi moliyaviy manbalar hisobiga rivojlantirishga qaratilgan strategik yondashuvning izchil amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi (2-rasm).




**2-rasm.** Yillar bo‘yicha markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar ulushi[11]

Investitsion salohiyatning real ifodasi investitsiyalarning qaysi iqtisodiy tarmoqlarga yo‘naltirilayotganida yaqqol namoyon bo‘ladi. 2025-yilning to‘qqiz oyi davomida ishlab chiqarish sanoati asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarning 27,3 foizini o‘zlashtirgan holda yetakchi mavqeini saqlab qoldi. Mashinasozlik

8 https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/64902-investitsiyalar-b-jicha-ajsi-ududlar-etakchi-2
9 https://invexi.org/uz/press/investment-climate-of-uzbekistan-steady-growth-in-the-first-quarter-of-2025/#:~:text=2024%2Dyilning%20shu%20davriga%20nisbatan,%2C3%20foizgacha%20ko‘tarilgan.
10 Manba: https://www.gazeta.uz/oz/2025/10/23/investments/
11 Manba: https://www.gazeta.uz/oz/2025/10/23/investments/

va kimyo sanoatiga boʻlgan yuqori investitsion talab Oʻzbekiston Respublikasining sanoatlashuv jarayonlarini jadallashtirish hamda yuqori qoʻshilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan investitsion salohiyatini yaqqol aks ettiradi.

Shu bilan birga, togʻ-kon sanoati ulushining 13,2 foizdan 9,9 foizgacha qisqargani investitsiya siyosatida xomashyo qazib olishga yoʻnaltirilgan yondashuvdan uni chuqur qayta ishlashga asoslangan strategiyaga bosqichma-bosqich oʻtilayotganini koʻrsatadi[12]. Energetika va gaz taʼminoti sohasi umumiy investitsiyalarning qariyb 14 foizini tashkil etib, iqtisodiyotning infratuzilmaviy tayanch tarmoqlaridan biri sifatida oʻz ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Qishloq xoʻjaligi tarmogʻida investitsion faollikning sezilarli darajada oshgani alohida eʼtiborga loyiqdir. Mazkur sohada investitsiyalar ulushi 8,8 foizga yetib, deyarli ikki baravar koʻpaygan. Ushbu oʻsish suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, qayta ishlash jarayonlarini modernizatsiya qilish hamda zamonaviy agrotexnologiyalarga investitsiyalar kiritish hisobiga amalga oshirilmoqda[13]. Uy-joy qurilishi sohasida ham investitsiyalar ulushining 5,2 foizdan 7,2 foizgacha oshgani ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan investitsion salohiyatning mustahkamlanayotganini koʻrsatadi.

Oʻzbekiston Respublikasining investitsion salohiyatini belgilovchi muhim koʻrsatkichlardan biri xorijiy investitsiyalar hajmi hisoblanadi. 2025-yilning toʻqqiz oyi yakunlariga koʻra, mamlakatga 34,5 milliard AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar va kreditlar jalb etilgan boʻlib, shundan 24,9 milliard AQSh dollari asosiy kapitalga yoʻnaltirilgan. Ayniqsa, toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar hajmining 1,5 baravarga oshib, 14,4 milliard AQSh dollariga yetgani investorlarning Oʻzbekiston iqtisodiyotiga boʻlgan ishonchi izchil ortib borayotganini tasdiqlaydi (3-rasm).




3-rasm. Oʻzbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha asosiy kapitalga yoʻnaltirilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar[14]

Davlat kafolati ostidagi kreditlar ulushining nisbatan past — 5 foiz darajasida saqlanib qolishi, biroq ularning umumiy hajmining 22,6 foizga oshgani, tashqi moliyalashtirish jarayonlariga ehtiyotkor va muvozanatli yondashuv amalga oshirilayotganini hamda davlat qarz yukini samarali nazorat ostida ushlab turish siyosati izchil olib borilayotganini koʻrsatadi.

Oʻzbekiston Respublikasida investitsiya muhitini takomillashtirish masalasi iqtisodiy rivojlanishning muhim institutsional omillaridan biri sifatida davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-iyuldagi “Xalqaro shartnomani tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PQ–226-sonli[15] qarori investitsiya siyosatining institutsional asoslarini mustahkamlashga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjat sifatida baholanadi[16].

Mazkur qaror Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashining uchinchi plenar yigʻilishi doirasida ilgari surilgan tashabbuslarni tizimli ravishda amalga oshirishni koʻzda tutadi hamda davlat va xorijiy investorlar oʻrtasidagi hamkorlik mexanizmlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Qarorga muvofiq, Xorijiy investorlar kengashiga oʻz vakolatlari doirasida doimiy faoliyat yurituvchi ishchi guruhlar tashkil etish, shuningdek, ularning tarkibiga tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari hamda mutaxassislarini

12 https://daryo.uz/tjX9tokvg/
13 https://gov.uz/suvchi/news/view/19307#:~:text=%E2%80%9CQishloq%20xoʻjaligiga%20suv%20tejovchi,amalga%20oshirilgan%20ishlar%E2%80%9D%20mavzusida%20brifing
14 Manba: https://www.gazeta.uz/oz/2025/10/23/investments/
15 Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-iyuldagi “Xalqaro shartnomani tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PQ–226-sonli qarori: https://lex.uz/ru/docs/-6532545
16 https://gov.uz/en/iiv/pages/o-zbekiston-respublikasi-prezidentining-farmonlari

jalb etish huquqi berildi. Ushbu mexanizm davlat boshqaruvi organlari bilan investorlar oʻrtasidagi muloqotni tizimli va institutsional asosda tashkil etishga yoʻnaltirilgan.

Ishchi guruhlarning asosiy funksional vazifalari quyidagilardan iborat:

- Kengash kotibiyati bilan hamkorlikda investitsiya muhitini yaxshilash boʻyicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarni har oyda muhokama qilib borish;
- investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirishga qaratilgan hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish.

Mazkur yondashuv investitsion muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishda tezkorlikni hamda institutsional muvofiqlashtirishni taʼminlashga xizmat qiladi.

PQ–226-sonli qarorning muhim jihatlaridan biri Xorijiy investorlar kengashi kotibiyatini xalqaro moliya institutlari ishtirokida nodavlat notijorat tashkilot shakliga oʻtkazish toʻgʻrisidagi qaror hisoblanadi. Ushbu institutsional transformatsiya kotibiyat faoliyatining mustaqilligi, funksional moslashuvchanligi hamda samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Yangi shakldagi kotibiyat zimmasiga quyidagi asosiy funksiyalar yuklatiladi:

- investitsiya muhitini yaxshilash boʻyicha tizimli va asoslangan takliflar ishlab chiqish;
- xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etishga amaliy koʻmaklashish;
- davlat organlari va xususiy sektor oʻrtasidagi oʻzaro hamkorlikni muvofiqlashtirish.

Kotibiyat faoliyati natijalarining har chorakda Prezident Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasiga taqdim etilishi uning faoliyatida hisobdorlik, monitoring va natijadorlik mexanizmlarini kuchaytiradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-iyuldagi “Xalqaro shartnomani tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PQ–226-sonli[17] qarorida investitsiya muhitini yaxshilashda raqamlashtirish omiliga alohida eʼtibor qaratilgan. Xususan, investitsiya faoliyati bilan bogʻliq barcha muhim davlat xizmatlari va investitsiya loyihalari toʻgʻrisidagi axborotni integratsiyalashgan holda taqdim etuvchi “Yagona investitsiya platformasi” axborot tizimini joriy etish nazarda tutilgan.

Mazkur platformaning joriy etilishi:

- investitsiya jarayonlarining shaffofligini oshiradi;
- byurokratik toʻsiqlar va tranzaksion xarajatlarni qisqartiradi;
- investorlar va davlat organlari oʻrtasidagi axborot asimmetriyasini kamaytiradi.

Shu bilan birga, platformaga maʼlumotlarni joylashtirish va axborot tizimlarini integratsiya qilish boʻyicha vazirliklar, idoralar hamda davlat ulushi 50 foizdan yuqori boʻlgan xoʻjalik subyektlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligi belgilanishi ushbu islohotlarning amaliy ijrosini taʼminlovchi muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon boʻladi.

Xulosa qilib aytganda, PQ–226-sonli Prezident qarori Oʻzbekistonda investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan institutsional islohotlarning mantiqiy va izchil davomi boʻlib, davlat va investorlar oʻrtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, investitsiya jarayonlarini raqamlashtirish hamda institutsional muvofiqlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali mamlakatning investitsion salohiyatini barqaror va uzoq muddatli rivojlantirishga xizmat qiladi.

Investitsion muhitni yaxshilash va tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha islohotlar. Oʻzbekiston Respublikasida tadbirkorlik va investitsiya muhitini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida eʼtirof etilgan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tadbirkorlar bilan olib borilgan ochiq muloqotlarida 2026-yildan boshlab joriy etilishi rejalashtirilgan “Biznesni 15 daqiqada boshlash” tamoyili mazkur yoʻnalishdagi muhim tashabbus sifatida namoyon boʻlmoqda[18]. Ushbu tamoyil doirasida tadbirkorlik subyektlarini roʻyxatdan oʻtkazish jarayonida bir vaqtning oʻzida Elektron roʻyxatdan oʻtkazish identifikatori (ERI) olish, bank hisobraqamini ochish hamda zarur axborot xabarnomalarini yuborish kabi muhim protseduralar amalga oshiriladi. Bu esa investitsiya muhitini soddalashtirish, tadbirkorlik faoliyatini ragʻbatlantirish va vaqt xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi.

Prezident tomonidan taʼkidlanganidek, qonun ustuvorligi taʼminlangan sharoitda biznes muhitining barqaror rivojlanishi va investitsiya muhitining jozibadorligi mustahkamlanadi. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatda shakllanib ulgurgan ishbilarmonlar sinfi nafaqat tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanayotgan subyektlar, balki iqtisodiyotning turli tarmoqlari va hududlari rivojiga faol hissa qoʻshayotgan investorlarga aylanib bormoqda. Mazkur holat ichki va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning strategik imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Investitsiya mexanizmlarining rivojlanishi anʼanaviy moliyalashtirish manbalari bilan cheklanib qolmasdan, venchur kapital, obligatsiyalar (bondlar), kraudfanding va startap loyihalari kabi zamonaviy moliyaviy vositalarning keng qoʻllanilishi orqali ham taʼminlanmoqda. Ushbu tendensiya Oʻzbekiston iqtisodiyotida

---

17 Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-iyuldagi “Xalqaro shartnomani tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PQ–226-sonli qarori: https://lex.uz/ru/docs/-6532545

18 https://www.gazeta.uz/oz/2025/08/20/business/

innovatsion va yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga qaratilgan investitsiyalarning izchil ortib borayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, investitsiyaviy munosabatlarni tartibga solish, investorlarning huquqlarini himoya qilish hamda ularga qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar mavjudligi qayd etiladi. Prezident tomonidan ilgari surilgan yondashuvga ko'ra, mazkur qoidalar va tartib-taomillarni yagona, bevosita amal qiladigan Investitsiya kodeksi orqali tizimlashtirish va amaliyotga tatbiq etish zarurati yuzaga kelmoqda. Ushbu kodeks investitsiya sohasidagi barcha qoidalar, kafolatlar va protseduralarni yagona huquqiy mexanizmga birlashtirib, investorlar uchun yanada qulay va ishonchli muhit yaratishga xizmat qiladi.

Parlament va jamoatchilik kengashi bilan yaqin hamkorlikda ishlab chiqiladigan Investitsiya kodeksining qabul qilinishi investitsiyalarni rag'batlantirish hamda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli institutsional islohotlarni ta'minlaydi. Shu bilan birga, ushbu islohotlar markazida inson qadri, tadbirkorlik erkinligi va investorlarning huquqlarini himoya qilish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Sud tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ham tadbirkorlik subyektlari manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan. Jumladan, tadbirkorlarga eksterritorial tartibda iqtisodiy va ma'muriy sudlarga murojaat qilish imkoniyatining yaratilishi hududiy cheklovlar bilan bog'liq byurokratik to'siqlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Shuningdek, moddiy zararlarni undirish jarayonlarida kechikishlarni oldini olish maqsadida "astrent" mexanizmi joriy etilmoqda. Mazkur mexanizm sud qarorida belgilangan moddiy zarar o'z vaqtida qoplanmagan har bir kun uchun penya undirishni nazarda tutib, investorlarning moliyaviy manfaatlarini samarali himoya qilish imkonini yaratadi.

Umuman olganda, yuqorida qayd etilgan tashabbuslar O'zbekistonda investitsion va tadbirkorlik muhitini takomillashtirishga qaratilgan institutsional islohotlarning yangi bosqichini ifodalaydi. Yagona Investitsiya kodeksining joriy etilishi, raqamli xizmatlarning kengaytirilishi va sud tizimidagi takomillashtirilgan mexanizmlar tadbirkorlik faoliyatining barqaror, shaffof va jozibador muhitda rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati so'nggi yillarda izchil va kompleks yondashuv asosida amalga oshirilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mamlakatning investitsion salohiyati nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlari va jalb etilgan sarmoyalar hajmi bilan, balki ularning tarkibi, moliyalashtirish manbalari hamda iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha yo'naltirilishi bilan ham aniqlanadi. Xususan, 2025-yilning to'qqiz oyi davomida xususiy va xorijiy kapitalning investitsiyalardagi faolligi sezilarli darajada oshgani, davlat mablag'larining esa strategik va muvozanatli tarzda qo'llanilishi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Institutsional islohotlar investitsiya muhitining sifat jihatidan yaxshilanishiga muhim hissa qo'shib, Xorijiy investorlar kengashi faoliyatining mustahkamlanishi, ishchi guruhlar va kotibiyatning nodavlat notijorat tashkilot shakliga o'tkazilishi hamda raqamli platformalarning joriy etilishi orqali davlat va investorlar o'rtasidagi hamkorlikni tizimli va samarali yo'lga qo'yishga imkon berdi. Natijada investitsiya jarayonlarida shaffoflik darajasi oshdi, byurokratik to'siqlar qisqardi va investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlari kengaydi. Shu bilan birga, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar, jumladan "Biznesni 15 daqiqada boshlash" tamoyilining joriy etilishi hamda Investitsiya kodeksi orqali normativ-huquqiy muhitni soddalashtirish choralari investitsiyalarni rag'batlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qilmoqda. Sud tizimidagi takomillashtirishlar, xususan "astrent" mexanizmi, investorlar va tadbirkorlarning moddiy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlab, iqtisodiy faoliyatning xavfsiz va barqaror muhitda rivojlanishiga zamin yaratmoqda. O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatni global texnologik zanjirlarga integratsiya qilish, innovatsion va yuqori qo'shilgan qiymatga ega investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytirayotgani holda, "yashil" energetika, infratuzilma hamda transport-logistika yo'nalishlarida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari iqtisodiyotning diversifikatsiyasini ta'minlash va barqaror rivojlanishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynamoqda. Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasining investitsiya siyosati institutsional islohotlar, raqamli transformatsiya va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlariga tayangan holda mamlakatning global iqtisodiy makondagi raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, ushbu jarayonlar ichki va xorijiy investorlar uchun jozibador muhitni shakllantiradi, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi hamda uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini izchil amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Kelgusida investitsiya siyosatining samaradorligini yanada oshirish uchun Investitsiya kodeksini investitsiya muhitida shakllanayotgan yangi tendensiyalar va zamonaviy moliyaviy instrumentlarni inobatga olgan holda doimiy takomillashtirib borish, raqamli transformatsiyani kengaytirish orqali "Yagona investitsiya platformasi" va boshqa raqamli xizmatlarni uzluksiz modernizatsiya qilish, sud tizimi va investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini, jumladan eksterritorial sud yurisdiksiyasi hamda "astrent" tizimini yanada kuchaytirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali global iqtisodiy zanjirlar va xalqaro moliya institutlari bilan integratsiyani chuqurlashtirish, shuningdek sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, "yashil" energetika va texnologik minerallar sohalariga investitsiyalarni

kengaytirish orqali iqtisodiy diversifikatsiyani jadallashtirish maqsadga muvofiqdir. Shu tarzda, O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan institutsional va raqamli islohotlar investitsiya muhitini sifat jihatidan yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilib, mamlakatning uzoq muddatli rivojlanishi hamda global iqtisodiy makondagi raqobatbardoshligini ta’minlashda mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. Abdullayev, A. (2021). *Investitsiyalar iqtisodiyoti*. Toshkent: Iqtisodiyot.
2. Acemoglu, D., Johnson, S., & Robinson, J. A. (2005). Institutions as a fundamental cause of long-run growth. In *Handbook of Economic Growth* (Vol. 1, pp. 385–472). Elsevier. https://doi.org/10.1016/S1574-0684(05)01006-3
3. Barro, R. J. (1991). Economic growth in a cross section of countries. *The Quarterly Journal of Economics*, 106(2), 407–443. https://doi.org/10.2307/2937943
4. Blundell, R., & Bond, S. (1998). Initial conditions and moment restrictions in dynamic panel data models. *Journal of Econometrics*, 87(1), 115–143. https://doi.org/10.1016/S0304-4076(98)00009-8
5. Driscoll, J. C., & Kraay, A. C. (1998). Consistent covariance matrix estimation with spatially dependent panel data. *Review of Economics and Statistics*, 80(4), 549–560. https://doi.org/10.1162/003465398557825
6. Glazyev, S. (2016). *Ekonomicheskaya teoriya razvitiya*. Moskva: Ekonomika.
7. International Monetary Fund. (2024). *Uzbekistan: Country report*. https://www.imf.org
8. Lucas, R. E. (1988). On the mechanics of economic development. *Journal of Monetary Economics*, 22(1), 3–42. https://doi.org/10.1016/0304-3932(88)90168-7
9. Mirziyoyev, Sh. M. (2025). *O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini yaxshilash va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha to‘rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutq*. Toshkent.
10. North, D. C. (1990). *Institutions, institutional change and economic performance*. Cambridge University Press.
11. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2024). *Investitsiya faoliyati bo‘yicha yillik hisobot*. Toshkent.
12. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). *Makroiqtisodiy sharh*. Toshkent.
13. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2025). *Asosiy kapitalga investitsiyalar bo‘yicha statistik byulleten*. Toshkent. https://www.stat.uz
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025). *Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi majlisi doirasida erishilgan kelishuvlarning ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida (PQ–226-son)*. Toshkent. https://lex.uz/uz/docs/-7637571?ONDATE=21.07.2025
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2020–2025). *Investitsiya faoliyatiga oid qaror va farmonlar to‘plami*. Toshkent.
16. Penn World Table. (2023). *Human capital index* (Version 10.01). https://www.rug.nl/ggdc/productivity/pwt
17. Qodirov, A. (2020). *Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish va investitsiyalar*. Toshkent.
18. Romer, P. M. (1990). Endogenous technological change. *Journal of Political Economy*, 98(5), S71–S102. https://doi.org/10.1086/261725
19. Standard & Poor’s. (2024). *Sovereign credit rating: Uzbekistan*. https://www.spglobal.com
20. Wooldridge, J. M. (2010). *Econometric analysis of cross section and panel data* (2nd ed.). MIT Press.
21. World Bank. (2024). *World Development Indicators*. https://databank.worldbank.org
22. World Bank. (2024). *Worldwide Governance Indicators*. https://info.worldbank.org/governance/wgi
23. Yuldashev, N. (2022). Inson kapitalining iqtisodiy o‘sishga ta’siri. *Iqtisodiyot va innovatsiyalar*, 4, 45–56.

**muhandislik & iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 1**

© Materiallar koʻchirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**